

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi

№ _____
“ _____ ” _____ 2022 y.

“Tasdiqlayman”

O‘quv ishlari prorektori _____

O.N.Bozorov

“ _____ ” _____ 2022 y.

PARFYUMERIYA MAHSULOTLARINI
ISHLAB CHIQRISH

FANI

SILLABUSI

Bilim sohasi: 700 000 - Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari

Ta’lim sohasi: 720 000 - Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari

Mutaxassislik: 70720101– Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta
ishlash texnologiyasi (yog‘-moy mahsulotlari bo‘yicha)

Qarshi-2022

Ushbu fan sillabusi Institut Kengashining 2022 yil ____ ____ dagi __ son yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi asosida tuzilgan.

Tuzuvchi:

Suvanova F.U. –“Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrası professori

Taqrizchilar:

Axmedov A. – QMII “OOMT” kafedrası professori

Jabborov J. –“Qarshi yog‘-ekstraksiya” AJ markaziy laboratoriya mudiri

Fan sillabusi “OOMT” kafedrası yig‘ilishida (bayon №__ ____2022 y.), Sanoat texnologiyasi fakulteti Uslubiy komissiyasida (bayon №__ ____2022 y.) muhokama etilgan va o‘quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

Institut Uslubiy Kengashining 2022 yil ____ ____ dagi __ son yig‘ilishi qarori bilan o‘quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

O‘quv- uslubiy boshqarma boshlig‘i _____ Sh.Turdiyev

Fakultet uslubiy kengashi raisi _____ M.Xakimova

Kafedra mudiri _____ G‘.Boqiyev

“Parfyumeriya mahsulotlarini ishlab chiqarish” fani sillabusi

Fan (modul) kodi M32PMICH	O‘quv yili 2022-2023	Semestr 3	ECTS krediti 2
Fan (modul) turi Tanlov fani	Ta’lim tili o‘zbek		Haftalik dars soati 2
Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim	Jami yuklama
Parfyumeriya mahsulotlarini ishlab chiqarish	30	30	60

O‘qituvchi haqida ma’lumot

Kafedra nomi	Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi		
O‘qituvchilar	F.i.sh.	Telefon nomeri	e-mail
Ma’ruzachi	Suvanova F.U.	+998 91 9500507	doc.fayoza@mail.ru.
Amaliy mashg‘uloti	Suvanova F.U.	+998 91 9500507	doc.fayoza@mail.ru.

I.Fanning mazmuni

“Parfyumeriya mahsulotlarini ishlab chiqarish” fani mutaxassislik fanlar blokining tanlov fanlari tarkibida 3-semestrda o‘qitiladi.

Mazkur fanni o‘qish davomida magistrantlar tomonidan parfyumeriya kosmetika mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlarining texnologik sharoitlari va texnologik uskunalarini yaxshi bilishlari, hamda laboratoriyada ishlash tajribalariga ega bo‘lishlari kerak. Dasturni amalga oshirish mutaxassislikning bakalavriatura yo‘nalishi o‘quv rejasida rejalashtirilgan maxsus (yog‘lar va moyli xom ashyolar kimyosi, o‘simlik moylari ishlab chiqarish texnologiyasi, yog‘larni qayta ishlash texnologiyasi) fanlaridan etarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlikni talab qiladi.

Fanni o‘qitishdan maqsad: - parfyumeriya va kosmetika mahsulotlari, ularning turlari, guruhlanishi, asosiy xom ashyo va yordamchi materiallar ishlab chiqarish texnologiyasi haqida bilim berish va malakalarini oshirishdir.

Fanning vazifasi — o‘quv rejasida rejalashtirilgan iqtisodlik fanlaridan yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan magistrantlarga ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarida parfyumeriya va kosmetika mahsulotlarning tarkibi, turlari, ishlab

chiqarish texnologiyasini, shu jarayonlar sharoitlarini, olinadigan mahsulot taxlillarini o'rgatishdan iboratdir.

II. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentliklar)

“Parfyumeriya mahsulotlarini ishlab chiqarish” o‘quv fanini o'zlashtirish jarayonida magistr:

-parfyumeriya-kosmetika mahsulotlarning tarkibiy komponentlari, ularning kimyoviy tabiati, fizik-kimyoviy xossalari bilishi va ulardan foydalana olish;

- parfyumeriya-kosmetika mahsulotlarning inson terisiga va to‘qimalariga ta’siri, parfyumeriya-kosmetika mahsulotlarning tibbiy va farmatsevtik xususiyatlarini bilish va ma’lumotlarga to‘liq ega bo‘lish;

- parfyumeriya-kosmetika mahsulotlarning ishlab chiqarish texnologiyasi, jarayon shart sharoitlari, tabiiy xom ashyolardan foydalanish hamda sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash *malakasiga ega bo‘lishi kerak.*

III. Ta’lim texnologiyalari va uslublari

Yo‘nalishning o‘ziga xos xususiyatlari dasturni interfaol usullarda o‘zlashtirishni taqazo qiladi. Bunda asosiy e’tibor auditoriya mashg‘ulotlarida va mustaqil tayyorgarlikda o‘zlashtiriladigan chuqurlashtiriladigan nazariy bilimlarga hamda ob’ektiv jarayonlar va hodisalarga nisbatan dunyoqarashni shakllantirishda ma’ruza mashg‘ulotlariga katta o‘rin ajratiladi.

Dastur materiallarini o‘zlashtirish to‘rt xil:

- muammoli mavzular bo‘yicha;

-mustaqil o‘zlashtirilishi murakkab bo‘lgan bo‘limlar bo‘yicha;

- ta’lim oluvchilarda alohida qiziqish uyg‘otuvchi bo‘limlar bo‘yicha;

- ma’ruzalarni interfaol usulda o‘qitish yo‘li bilan;

-mustaqil ta’lim olish va ishlash, kollektivlar va munozaralar jarayonida o‘zlashtiriladigan bilimlar bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

Mustaqil tayyorgarlik jarayonida talaba adabiyotlar, internet materiallari va meyoriy hujjatlar bilan ishlashni uddalashni namoyon qilishi, auditoriya mashg‘ulotlari paytida qabul qilingan ma’lumotlarni mushohada qilish va mustaqil ijodiy qarorlar qabul qila olish qobiliyatlarini ko‘rsatishi zarur.

Fanni o‘zlashtirishda masofadan o‘qitish (modul platformasi), darslik, o‘quv qo‘llanmalari va ma’ruzalar matnlarining elektron versiyalari, ma’ruzalar o‘qish, video-audio mashg‘ulotlar va elektron resurslar (Internet tarmog‘i orqali) dan foydalaniladi.

Dastur talabalar bilimni reyting-nazoratidan foydalanadigan o'quv jarayonini tashkil qilishning kredit-modul tizimi tamoyillari asosida amalga oshadi.

IV. Fan tarkibi (ma'ruza mashg'ulotlari)

3-semestr

№	Mavzular	Qisqacha mazmuni	soat
1,2	1-mavzu. Kirish. Parfyumeriya va kosmetika sanoatining rivojlanishi	Parfyumeriya va kosmetika sanoatining rivojlanishi. O'zbekistondagi Parfyumeriya-kosmetika sanoati. Hid sezish qobiliyati Hidlarning guruhlanishi. Parfyumeriya, xushbo'y moddalar tasnifi. Parfyumeriya mahsulotlarning guruhlanishi	4
3	2-mavzu. Parfyumeriyada qo'llaniladigan asosiy va qushimcha materiallar	Spirt, spirtlarni tozalash, spirtlarga qo'yiladigan talablar. Suv. Suvlarni mexanik aralashmalardan tozalash. Suvga qo'yiladigan talablar. Rang beruvchi moddalar. Xushbo'y moddalar	2
4, 5	3-mavzu. Kosmetika mahsulotlarni ishlab chiqarishda qo'llaniladigan asosiy va qushimcha materiallar	Suv. Spirt. Polietilenglikollar. Kislotalar. Gel hosil qiluvchi moddalar Namlovchi ta'sirga ega bo'lgan kimyoviy moddalar: gialuron kislota Lipofil komponentlar: gidrolizlanmaydigan moddalar gidrolizlanadigan moddalar Kremniyorganik birikmalar Emulgatorlar, emulgator va sirt faol moddalarning fizik kimyoviy xossalari emulgatorlarnig texnologik xususiyatlari bo'yicha guruhlanishi Biologik faol moddalar Konservantlar Antioksidantlar	4
5,6	4-mavzu. Parfyumeriya kompozitsiyalarini	Parfyumeriya kompozitsiyalarning mohiyati va maqsadi. Parfyumeriya kompozitsiyalarning tarkibi.	2

	tuzish asoslari	Parfyumeriya mahsulotlari sifati. Parfyumeriya mahsulotlari ekspertizasi.	
7,8	5- mavzu. Kosmetika mahsuloylari texnologiyasi	Kosmetikadagi dispers tizimlar: yog‘-suv (suvda yog‘) emulsiya asosidagi kremlar; suv-yog‘ (yog‘da suv) emulsiya asosidagi kremlar. Kremlardagi difil tizimlar Kremlarni tayyorlash texnologik bosqichlari Kremlarni tayyorlash texnologik liniyalari Parfyumeriya va kosmetika mahsulotlarini ishlab chiqarish asosiy qurilmalari	4
			16

Laboratoriya mashg‘ulotlari

Laboratoriya mashg‘ulotlari rejalashtirilmagan.

Amaliy mashg‘ulotlari

№	Mavzular	Soat
1	Parfyumeriya mahsulotlarning guruhlanishi.	2
2	Efir moylarni olish usullari	2
3	Parfyumeriya kompozitsiyalarni tayyorlash	2
4	Emulsiyani tayyorlashda moyning balansi	2
5	Gellar va gel hosil qiluvchilar	2
6	Kosmetik emulsiyalarni tayyorlash usullari	2
7	Kremlarning sifat ko‘rsatkichlari va ularni aniqlash usullari	2
	Jami	14

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan ko‘rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma‘ruza mavzulari bo‘yicha olgan bilim va ko‘nikmalarini amaliy masalalar echish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o‘quv qo‘llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustaxkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar echish, mavzular bo‘yicha ko‘rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

Amaliy mashg‘ulotlari bir akademik guruhga bir professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi lozim. Mashg‘ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bilimlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy (distansion) ta'lim;
- referatlar yozishni standart talablarga mos ravishda va hisoblash texnikasidan foydalanib mustaqil bajarishni o'z ichiga oladi.
- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tayyorlash va h.k..

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. Terning tuzilishi va asosiy funksiyalari
2. Maxsus maqsadlar uchun kosmetika mahsulotlari
3. Terning lipidlari
4. Efir moylar
5. Tish va og'iz bo'shlig'ini parvarish qilish mahsulotlari
6. Sochni parvarish qilish mahsulotlari
7. Kosmetika mahsulotlarni ishlab chiqarish asosiy uskunalari
8. Kosmetika mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun asosiy biologik aktiv moddalar
9. Kosmetika mahsulotlarni qadoqlash
10. Nanotexnologiyaga asoslangan kosmetika

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

VI. Talabalar bilimni baholash mezonlari va kreditlarni olish uchun talablar

Kreditlarni olish uchun talablar fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtiradi, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira oladi, o'rganilayotgan

jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritadi va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajaradi, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshiradi.

Fanga oid nazariy materiallar ma'ruza mashg'ulotlarini ma'ruzalarda ishtirok etish va kredit-modul platformasi orqali ma'ruzalarni mustahkamlash hamda belgilangan test savollariga javob berish orqali amalga oshiriladi.

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilish va o'zlashtirish mashg'ulotlarga to'liq ishtirok etish va modul platformasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazorat qilinadi.

Mustaqil ta'lim mavzulari modul platformasi orqali berilgan mavzular bo'yicha topshiriqlarni bajarish (test, referat, slayd va boshqa usullarda) bajariladi.

Fan bo'yicha talabalar test usulida oraliq nazorat va og'zaki (yoki test) usulida yakuniy nazorat topshiradilar.

Talabalar bilimi O'zbekiston Respublikasi OO'MTVning 2018 yil 9 avgustdagi 9-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" asosida baholanadi.

Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimini baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Fan dasturida berilgan baholash mezonlari asosida fanni o'zlashtirgan talabalarga tegishli ta'lim yo'nalishi (magistratura mutaxassisligi) o'quv rejasida ushbu fanga ko'rsatilgan kredit beriladi.

VII. Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. Кривова А.Ю., Паронян В.Х. Технология производства парфюмерно-косметических продуктов. –М.: ДеЛи принт, 2009.-668 с.
2. Технология косметических средств: учебное пособие для студентов фар мац. Спец. Высших учебных заведений / Башура А.Г., Половко Н.П., Ковалева Т.М. и др .. - Винница: Новая книга, 2007.- 360 с.
3. Каспаров Г.Н. Основы производства парфюмерии и косметики. -2-е изд., перераб. и доп. – М.: Агопромиздат, 1988. -287 с.
4. Бондаренко Ж.В. Технология парфюмерно-косметических продуктов. Лабораторный практикум.: учеб.-метод. пособие. –Минск.: БГТУ,2018. -98 с.

Qo‘shimcha adabiyotlar

- 5.Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017, 488 b.
- 6.Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017, 48 b.
- 7.Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2016, 56 b.
8. Руководство по технологии получения и переработки растительных масел и жиров./ Под. ред. А.Г. Сергеева Л. Учебное пособие.: ВНИИЖ том 2, - 1973, том 3 кн. 1, -1985, кн. 2 -1977.

Elektron resurslar:

1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali.
2. www.lex.uz - O‘zR Adliya vazirligi sayti.
3. www.ziyonet.uz - O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti.
4. www.bilim.uz - O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti.
5. www.ziyonet.uz
6. <https://www.catalyst.com>
7. <https://www.cimbria.com>
8. www.twirpx.com
9. www.taocs.org.books.

